

## **OLIY O'QUV YURTLARIDA INGLIZ TILINI O'QITISHNING AHAMIYATI**

**Djabborova Nodira Axmadjonovna**

Master of Arts in Teaching English as a Second Language

The assistant of the department “Uzbek Language and Literature” Andijan Machine Building Institute

[nodira.djabbarova@bk.ru](mailto:nodira.djabbarova@bk.ru)

**Zulunova Mushtariybegim**

Student of Andijan Machine building Institute

**Mashrabjonova Nilufar**

Student of Andijan Machine building Institute

**Annotatsiya.** Maqolada hozirgi rivojlangan davrda yosh mutaxassislarga ingliz tilini o'qitishda bir qancha afzalliklarga ega bo'lgan metodlarni foydalanish haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** metod,innovatsion texnologiya, texnologiya, harakatlar strategiyasi, grammatika.

Ingliz tilini o'qitishda «metod», «metodika»va «texnologiya» tushunchalari keng qo'llaniladi. Mazkur tushunchalar mohiyatini tavsiflashda xilma-xil yondashuvlar mavjud bo'lib, mutaxassislar o'rtasida baxs-munozaralarga sabab bo'lib kelmoqda. Ammo adabiyotlarni tahlil qilish, ma'lumotlarni umumlashtirish orqali tushunchalarning aniq ta'rifini shakllantirish mumkin. Muayyan ta'lim-tarbiyaviy maqsadga qaratilgan biror harakatni amalga oshirish yo'li, usuli yoki ko'rinishidan iborat bo'lib shakllangan faoliyat shu maqsadga erishishga xizmat qiluvchi o'ziga xos ta'lim metodini hosil qiladi. Ingliz tilini o'rganayotgan talabalarga bir necha metodlar taklif etilmoqda. Ulardan biri – fundamental metoddir. U kamida 2-3 yillik o'qishni, grammatikani chuqur o'rganishni taqozo etadi. Ushbu metod, asosan, professional tarjimonlarni tayyorlashda qo'l kelib, o'qish yakunida talabalar dunyoga «native speaker», ya'ni til egasining(tashuvchisining) ko'zi bilan qarashga erishadilar. Uning asosida til real va to'liq muloqot vositasi sifatida o'rganiladi. Hozirda fundamental metod o'z maqsadini o'zgartirmagan, biroq boshqa ko'plab metodlar aynan fundamental metod bilan raqobat maydoniga chiqishgan. Tilni o'rganish jarayonida eng muhim–uzatilayotgan axborot mazmunining qay darajada to'g'ri ekanligidir.

Respublikamiz ta'lim tizimini isloh qilishda xorijiy tajribalarga asoslangan xalqaro standartlarga mos keluvchi o'quv dasturlari bilan muvofiqlashtirish oliy pedagogic ta'lim tizimini takomillashtirishga asos bo'ldi. O'zbekiston sharoitida milliy mintalitetimiz, urfdodatlarimizni inobatga olgan holda xorijiy tajribalar asosida ta'lim sifatini tubdan isloh qilish davr talabidir. Bu borada 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida mamlakatimizda "...ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy qilish asosida oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rag'batlantirish, ilmiy va innovatsion yutuqlarni amaliyotga joriy qilishning samarali mexanizmlarini yaratish...", kadrlar tayyorlashning sifat darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida malakali mutaxassislar tayyorlash uchun zarur shart- sharoitlarni yaratish, har bir oliy ta'lim muassasasi jahoning yetakchi ilmiy-ta'lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalari o'rnatishi va talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish, yoshlar

auditoriyasi bilan ish olib borishda interfaol usullardan samarali foydalanish, ularga chet tilidan sifatli ta'lim bera olish, oliv ta'lim darajasini namunali bosqichga olib chiqish va tubdan takomillashtirish asosiy vazifalar sifatida belgilandi.

Ingliz tilini o'rganishga bo'lgan talab ham kun sayin ortib bormoqda. Bunda o'qish, yozish, tinglab tushunish va gapirish qismlari mavjud bo'lib, ularning har biri bo'yicha alohida tushuncha va ko'nikmalar berilmoqda. Ta'lim texnologiyalari va zamonaviy axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishdir. Shuningdek, ta'lim jarayoniga zamonaviy innovatsion texnologiyalarini olib kirish orqali ta'lim sifati va samaradorligini oshirishni nazarda tutadi. Xususan, ingliz tilini o'rganishda bunday axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishning bir qancha afzallikkari mavjuddir. Til o'rganish va o'qitishda zamonaviy taxnologiyaning o'rni muhimdir. Texnologik vositalardan foydalanish ingliz tili o'rganishning har birida o'qish, yozish, tinglab tushunish va gapirish qo'l keladi. Masalan, tinglab tushunish uchun, albatta kompyuter, player, CD disklarsiz bu jarayonni amalga oshirish mumkin emas. Tinglab tushunish til o'rganishning eng muhim jihatlaridan biridir. Bunda talaba bir paytning o'zida so'zlovchining talaffuzi, grammatik qoidalarga riya qilganligi, so'z boyligi hamda uning ma'nolariga e'tibor berishi talab qilinadi. Ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishda talabalar ham axborot — kommunikatsion texnologiyalarni yaxshi bilish va ulardan foydalana olishi muhim omil hisoblanadi. Ingliz tilini zamonaviy texnologiyalardan foydalanib o'rgatish va o'rganish eng qulay usullardan biridir. Ushbu jarayonda, jumladan: – kompyuterlardan foydalanganda talaba ingliz tilidagi video roliklarni, namoyishlarni, dialoglarni kino yoki multfilmlarni ham ko'rishi ham eshitishi mumkin; – ingliz tilidagi radio eshittirishlar va televideniyadagi dasturlarni eshitish va tomosha qilish mumkin; – CD pleyerlardan foydalanish mumkin. Bu texnik vositalardan foydalanish talabalarning ingliz tilini o'rganishlari jarayonini qiziqarliroq va samaraliroq bo'lishini ta'minlaydi. Bugungi kunda oliv o'quv yurtlarida interfaol o'yinlar orqali dars o'tish an'anaga aylanib bormoqda. Ma'lumki, darsning turli xil o'yinlar asosida o'tilishi talabalarning imkoniyatlarini namoyish etish, diqqatni jamlash, bilim va ko'nikmalarini oshirish va kuchli bo'lishlarini ta'minlaydi. O'yinli faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o'zini namoyon qilish, hayotda barqaror o'rnini topish, o'zini o'zi boshqarish, o'z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi. Har qanday o'yin zamirida umumiyligini qabul qilingan ta'lim prinsiplari, taktikasi yotishi kerak. Dars jarayonlarida mutaxassisliklarga mos ravishda terminlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Mashg'ulotda talaba oddiy darsga qaraganda yanada qiziqibroq yondashadi va bemalol faoliyat ko'rsatadi. Talabalar o'yinli darslarga qiziqib qatnashadilar, g'alaba qozonishga intiladilar, o'qituvchi ular orqali talabaga ta'lim-tarbiya ham beradi. Talaba inglizcha o'yin o'ynab, gapira olarkanman, tinglab tushuna olarkanman, yoza olarkanman, deb ishonadi, qiziqadi. Biz bilamizki, hozirgi ta'lim jarayonida talaba sub'ekt bo'lishi lozim. Bunda ko'proq interfaol metodlarga e'tiborni qaratish ta'lim samaradorligini oshiradi. Ingliz tili darslariga qo'yilgan eng muhim talablardan biri talabalarni mustaqil fikrlashga o'rgatishdir. Bugungi kunda ingliz tili o'qituvchilari Amerika Qo'shma Statlari, Angliya pedagoglari tajribasiga tayangan holda quyidagi innovatsion metodlardan foydalanib kelishmoqda: – "Muammoli vaziyat yechimi" (Creative Problem Solving) bu usulni qo'llash uchun hikoyaning boshlanishi o'qib beriladi qanday yakun topishi o'quvchilar, talabalar hukmiga havola qilinadi; – "Quvnoq topishmoqlar" (Merry Riddles) tinglovchilarga topishmoqlar o'rgatish Ingliz tilini o'rgatishda muhim ahamiyatga ega, ular o'zlariga notanish bo'lgan so'zlarni o'rganadilar va o'ylab topishmoq javobini topadilar; – "Tezkor javob" (Quick answers) o'tilgan dars samaradorligini oshirishda yordam beradi; – "Hikoya zanjiri" (a chain story) usuli o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirishda yordam beradi – "Rasmlar so'zlaganda" (When pictures speak) usuli ancha qulay bo'lib, ingliz tilini o'rgatishda, talabalarning og'zaki nutqini rivojlantirishda yordam beradi, buning uchun mavzuga oid rasmlardan foydalanish lozim.

Ko'rib chiqqanimizdek, har bir innovatsion texnologiyani o'ziga xos jihatlari mavjuddir. Bunday usullarning barchasida o'qituvchi va talaba o'rtasidagi hamkorlik, tinglovchining ta'lif jarayonidagi faol harakati ko'zda tutiladi. Talabada bilimga ishtiyoq uyg'otadi va darslarga puxta hozirlik ko'rishga intiladi. Bu esa ta'lif jarayonining faol sub'yektlariga aylantiradi. Bu bilan ta'lif tizimi o'z oldiga erkin fikrlovchi, barkamol, mustaqil yetuk shaxsni tarbiyalashni vazifa qilib qo'ygan.

### **Foydalanilgan Adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida/ O'zbekiston Respublikasi qonun hujjalari to'plami, 2017-yil, 6-son, 70-modda.
2. Tojiboeva D. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. – T.: «Fan vatexnologiya», 2007.
3. N. Q. Xatamova, M.N.mirzayeva. “Ingliz tili darlarida qo'llaniladigon interfaol usullar” (uslubiy qo'llanma), Navoiy, 2006, 40 bet.
4. M. Xoldorova, N. Fayziyeva, F. Rixsittilayeva. “CHET TILINI O'QITISHDA YORDAMCHI VOSITALARDAN FOYDALANISH”. Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU.